

UO'K 631.671:633.51

## QASHQADARYONING SHO'RLANGAN TUPROQLARI MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASHDA SPERSAL KIMYOVIY MELIORANTINI QO'LLASH NATIJALARI

**Doniyorov Toshmamat Omonovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, q.x.f.f.d

E-mail: [dtoshmamat@mail.ru](mailto:dtoshmamat@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Qashqadaryo viloytining Qarshi tumani hududida SPERSAL kimiyoziy meliorantini qo'llab, o'rtacha sho'rangan erlarda tuproq meliorativ holatini yaxshilash va sho'r yuvishga sarflanadigan suv tejamkorligi masalalari bo'yicha o'tkazilgan dala tajribalari natijalari keltirilgan.*

**Kalitli so'zlar:** kimiyoziy meliorant SPERSAL, sug'orish me'yor, sug'orish normasi, egatlab sug'orish, tuproq, sho'rلانish, suv tejamkor texnologiya.

### АННОТАЦИЯ

*В статье представлены результаты проведенных полевых опытов на территории Кашиинского района Каракадаргинской области по улучшению мелиоративного состояния среднезасоленных почв с применением химического мелиоранта SPERSAL и экономия воды затрачиваемой на промывку почв.*

**Ключевые слова:** химический мелиорант SPERSAL, норма полива, оросительная норма, полив по бороздам, почва, засоление, водосберегающие технологии.

### ABSTRACT

*The article presents the results of field experiments on the territory of the Karshi district of the Kashkadarya region to improve the ameliorative state of moderately saline soils using the chemical ameliorant SPERSAL and save water spent on soil leaching.*

**Key words:** chemical meliorant SPERSAL, irrigation rate, irrigation norm, egatlab irrigation, soil, salinity, water saving technology.

### KIRISH

Daryo oqimlari tog'larda mavsumiy qor qatlamlari, muzliklar va qorliklarning erishi, shuningdek, yog'inlar natijasida hosil bo'ladi. Tog'lardagi yer osti suvlari yukoridagi sanab o'tilgan suv olish manbalari hisobiga vujudga keladi. Tog'oldi va sug'orma mintaqalarda yer osti suvlari, asosan, yer usti suvlari hisobiga to'yinadi. Daryo va yer osti suvlarining suv resurslari o'zaro bir-biriga bog'liq. Yer osti

suvlaridan juda katta miqdorda foydalanish daryo oqimini kamaytirib yuboradi. O'rta Osiyoning sug'orma dehqonchilik mintaqalarida daryo suvlarining yillik resurslari 114 km<sup>3</sup> ni, jumladan, Amudaryoda (Zarafshon va Qashqadaryo bilan birga) — 74,7 km<sup>3</sup>, Sirdaryoda — 39 km<sup>3</sup>, Tajan va Murg'obda — 2,4 km<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Suv resurslari hududiy jihatdan notekis joylashgan bo'lib, tog'larda hosil bo'lsada, keng tarmoqli sug'orish kanallari yordamida, asosan, tekisliklarda foydalilanadi [2].

Dunyo miqyosida iqlimning global isib borishi ta'sirida tog'lardagi muzliklar maydonining kamayishi Respublikamizning asosiy sug'orish suvi manbasi hisoblangan Amudaryo va Sirdaryolarda hamda umuman mintaqada suv taqchilligi kutilmoqda. Dunyoning turli mamlakatlarida jumladan: Isroilda sug'oriladigan maydonlar 100 foiz suvni tejovchi texnologiyalarga o'tkazilgan. AQSHda bu ko'rsatkich 38,2 foizni, Misrda 36 foizni, Qozog'istonda 14 foizni, Turkiyada 12 foizni, Xitoy Xalq Respublikasida 11 foizni tashkil etadi [1].

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2020 yilda O'zbekistonda paxta yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyasini qo'llash natijasida gektariga o'rtacha: suv sarfi 40- 50 % ga tejaldi; yonilg'i 60 % ga iqtisod qilindi; mineral o'g'itlar samaradorligi 30 % ga ortdi; mehnat resurslari, ish haqiga xarajatlar tejaldi; g'o'zaning biologik pishish muddati 12-15 kunga tezlashdi; hosildorlik 20-30 sentnerga ortdi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 dekabrdagi PQ-4919-son "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi hamda suv resurslariga bo'lgan talabning o'sib borishi sharoitida qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini keskin oshirish vazifalari belgilanib, 2021 yilda 160 ming gektar paxta, 30 ming gektar mevali ekinlar, 15 ming gektar uzum va 5 ming gektar boshqa ekinlar maydonlarida tomchilatib sug'orish, 14 ming gektardan oshiq donli ekinlar, 2 ming gektar sabzavot va poliz hamda 2 ming gektar ozuqabop ekinlar etishtiriladigan maydonlarda yomg'irlatib sug'orish, 623 gektar paxta etishtiriladigan maydonlarda diskret sug'orish texnologiyasini joriy qilish topshirig'i belgilangan [2].

Respublikamizda turli darajada sho'rangan maydonlarida sho'r yuvish uchun qo'shimcha 2500-6000 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanishi talab qilinadi. Bunday muammolar sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilashda suv tejamkor yangi texnologiyalar ustida ishlashga undaydi.

Biz 2008 - 2010 yillari Qarshi tumanining o'rtacha darajada sulfat-xlorli turda sho'rangan, og'ir mexanik tarkibli o'tloqlashib borayotgan taqirsimon tuproqlari sharoitida "Buxoro-6" navli g'o'zaning sug'orish texnikasini takomillashtirish, tuproqning suv-tuz tartibiga SPERSAL kimyoviy meliorantning ta'sirini ilmiy

asoslash maqsadida quyidagi variantlar [9] bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib bordik:

1. Oddiy usulda chigit ekish, namlik tanqisligi bo'yicha egatlab sug'orish (nazorat).
2. Plyonka ostiga chigit ekish, ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % bo'yicha egatlab sug'orish.
3. Tuproqqa kimyoviy meliorant (5 kg/ga) qo'llash, plyonka ostiga chigit ekish, ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % bo'yicha egatlab sug'orish.
4. Plyonka ostiga chigit ekish, ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 25 % kam me'yor bilan sug'orish.
5. Plyonka ostiga chigit ekish, CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 25 % ortiq me'yor bilan sug'orish.
6. Tuproqqa kimyoviy meliorant (5 kg/ga) qo'llash, plyonka ostiga chigit ekish, CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 25 % ortiq me'yor bilan sug'orish.
7. Plyonka ostiga chigit ekish, CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 50 % ortiq me'yor bilan sug'orish.
8. Tuproqqa kimyoviy meliorant (5 kg/ga) qo'llash, plyonka ostiga chigit ekish, CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 50 % ortiq me'yor bilan sug'orish [7].

Tadqiqot uchun kichik maydonchali (maydonchalar o'lchami 1440 m<sup>2</sup>), nishabligi 0,002 va egatlar uzunligi 200 m, oralig'i 0,9 m bo'lgan tajriba dalasi tanlangan, u sizot suvlari sathi ekin maydoni sathidan 2,2-2,5 m pastda joylashgan ochiq zovur bilan tutashgan. Qaytariqlar soni 4 tani tashkil etgan. Tuproqning sug'orishdan oldingi namligi shu mintaqada qabul qilingan va ijobiy natijalarga erishilgan "Buxoro-6" navi uchun CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % tizim qabul qilindi [5].

CHDNS 21,6 % va tuproq hajmiy massasi 1,44 g/sm<sup>3</sup> ekanligini inobatga olib, shu qatlamni sug'orish uchun namlik CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda S.N.Rijovning formulasi yordamida hisoblaganimizda gullash-shonalashgacha bo'lgan davrda 0-70 sm qatlam uchun 780 m<sup>3</sup>/ga. Gullash-shonalash va pishish davrigacha bo'lgan sug'orishlar 0-100 sm lik qatlam uchun 1083 m<sup>3</sup>/ga ga teng ekanligini aniqladik [5].

Tajriba dalasida qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar PSUEATI va uning Qashqadaryo filialida ishlab chiqilgan, ilmiy asoslangan dehqonchilik tizimi asosida olib borildi. Ma'danli o'g'itlarning yillik me'yorlari NPK-200, 140, 70 kg/ga bo'lib, fosforli va kaliyli o'g'itlarning 50 va 70 foiz miqdori shudgorlash oldidan, qolgan fosfor gullashda, kaliy shonalashda, azot 2-3 chinbarg hosil bo'lganda, shonalashda hamda gullash davrida berildi.

Shudgorlash tirkama PYa-3-33 rusumli pluglar yordamida har yili kuzda 30-35 sm chuqurlikda o'tkazildi. Har yili aprel oyining boshlarida tuproqning namligini saqlash maqsadida boronalash ishlari bajarildi va mola bosildi hamda ekish oldi ishlari sifatlari qilib o'tkazilgan tajriba dalasiga 2008 yil 19-aprelda, 2009 yil 31-martda, 2010 yil 20-22 martda chigit qatorlab 90x10x1 tizimda ekildi davrida 5-6 marta qator oralariga KRX-4 kultivatori yordamida ishlov berilib, begona o'tlarga qarshi 1-2 marta qo'lda chopiq o'tkazildi.

Amal davrida g'o'za kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashda kimyoviy dorilardan foydalanildi, g'o'za bo'yining o'sib va g'ovlab ketishining oldini olish va yon shoxlarning o'sishini ta'minlash, ko'proq hosil tugunchalariga erishish maqsadida 2 marta qo'lda chilpish tadbiri o'tkazildi. Etishtirilgan paxta hosili 3 terimda yig'ishtirib olindi [8].

Tarkibiga ko'ra SPERSAL kimyoviy meliorantining asosi polimer butenediotik polimalen kislotasidan tashkil topgan bo'lib, 30 % gomopolimer, 6 % chiziqli sulfat alkilbenzol va boshqa 64 % inert moddalardan iborat [4].

SPERSAL kimyoviy meliorantining fizik-kimyoviy ta'siri mohiyati quyidagicha: SPERSAL kimyoviy melioranti tuproqqa sepilganda, tuproq singdirish kompleksida natriy kationining siqib chiqarilishi natijasida kalsiy va magniy kationlari almashinuv reaksiyasi yuz beradi [6].

O'simlik ildiz qatlami tuprog'ida hosil bo'lgan xlorli, natriy sulfid, natriy bikarbonat kabi tuzlar ekinni sug'orish uchun berilgan suv yordamida erib, pastki qatlamlarga tushadi.

SPERSAL kimyoviy melioranti sepilganda tuproqda almashinuv reaksiyasi ro'y beradi. SHo'r yuvish oldidan sho'rlanish darajasi va turiga mos ravishda SPERSAL kimyoviy melioranti zarur miqdorini tuproqqa sepib, sho'r yuvilganda, berilayotgan suv va o'simlik ildiz qatlami joylashgan tuproqni sho'rsizlantirish uchun sarflanayotgan solishtirma xarajatlar miqdori kamayadi. Ya'ni, sho'r yuvish me'yorini kamayishi uchun ma'lum sharoit yaratiladi. Tuproq suv-fizik xossalaring o'zgarishi hisobiga suvning tuproqqa shamilish jadalligi ortadi, shuningdek sug'orish texnikasi elementlari ham o'zgaradi [7].

Tajriba uchun SPERSAL kimyoviy meliorantining tuproqqa sepilishi me'yor SHveysariyaning "Sibo-Novartis" firmasi tavsiyasiga binoan 5 kg/ga qabul qilindi.

Tuproq ildiz qatlamidagi suv rejimining o'zgarishi va yo'nalishini o'rganish maqsadida tuproq 0-100 sm qatlamida suv muvozanatining alohida elementlari aniqlab chiqildi. Tadqiqot o'tkazilgan yillar o'rtacha olingan qiymatlariga asosan taqqoslanayotgan variantlar kesimida paxta dalasidan bo'lgan umumiyy suv sarfi 9677 m<sup>3</sup>/ga dan (7 va 8 variantlar) 10398 m<sup>3</sup>/ga gacha (1 variant) bo'ldi. Tajriba

ma'lumotlaridan ko'rindiki, tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibga nisbatan 25 va 50 % gacha me'yori oshishi bilan birlik maydonidan sarflanadigan suv hajmi kamayib boradi. Ya'ni nazorat variantida suv sarfi 10398 m<sup>3</sup>/ga bo'lgani holda polietilen plyonka va SPERSAL kimyoviy melioranti ishlatalig'an 2 va 3 variantlarda suv sarfi 515 m<sup>3</sup>/ga kamaydi. Sug'orish me'yori ChDNS ga nisbatan 25 % kamayganda bu farq nazoratga nisbatan 820 m<sup>3</sup>/ga ni tashkil etdi (4-variant). Chigitni plyonka ostiga ekib, tuproqqa 5 kg/ga miqdorida SPERSAL preparati qo'llanilganda (5 va 6 variantlar) umumi suv sarflari orasidagi farq juda kam bo'ldi va 106 m<sup>3</sup>/ga ni tashkil etdi.

### **1 s paxta xom ashysosi olish uchun ketgan sug'orish suvi sarflari [3]**

Tajriba variantlari	2008 yil			2009 yil			2010 yil		
	Mavsumiy sug'orish me'yori, m <sup>3</sup> /ga	Hosildorlik, s/ga	1 s hosil uchun sug'orish suvi xarajatlari, m <sup>3</sup> /s	Mavsumiy sug'orish me'yori, m <sup>3</sup> /ga	Hosildorlik, s/ga	1 s hosil uchun sug'orish suvi xarajatlari, m <sup>3</sup> /s	Mavsumiy sug'orish me'yori, m <sup>3</sup> /ga	Hosildorlik, s/ga	1 s hosil uchun sug'orish suvi xarajatlari, m <sup>3</sup> /s
1	7100	27,8	255,4	6370	29,6	215,2	7190	31,5	228,2
2	6230	39,5	157,7	5670	36,4	155,8	6510	39,3	165,6
3	6230	41,3	150,8	5670	37,1	152,8	6510	40,6	160,3
4	6710	34,2	173,4	5220	31,5	165,7	5830	32,4	179,9
5	6960	41,4	168,1	6220	40,2	154,7	6760	42,2	160,2
6	6960	43,6	159,6	6220	42,7	145,7	6760	44,3	152,6
7	6330	42,4	149,3	5780	41,6	138,9	6310	39,6	159,3
8	6330	45,5	139,4	5780	44,3	130,5	6310	45,4	139,0
O'rtal.	6509	39,5	169,2	5866	37,9	157,4	6522	39,4	168,1

Tajribaning xuddi shunday sharoitida, ammo suv ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibga nisbatan sug'orish me'yorini 50 % oshirganda (7 va 8 variantlar) paxta maydonining 1 hektariga nazorat variantiga nisbatan 721 m<sup>3</sup> kam suv sarflandi. Keltirilgan umumi suv sarfi hajmlarida atmosfera yog'lnlari miqdori 1,2 va 3 variantlarda deyarli bir xil bo'lib, u 24,3-25,3 % bo'ldi. Shunisi xarakterliki, namlik ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 25 % oshirilgan (5 va 6 variantlar) va 50 % oshirilgan (7 va 8 variantlar) da umumi suv sarfida atmosfera yog'lnlari hissasi deyarli bir xil, ya'ni tegishlichcha 19,6 va 18,6 % bo'ldi [8].

Tajriba ma'lumotlaridan ko'rindiki, vegetatsiya davri oxirida bahorgi davrga nisbatan tuproqning 0-100 sm qatlqidagi tuzlar miqdori kamayishining eng katta ko'rsatkichi taqqoslash davrida 50 % ga oshirilgan me'yordarda sug'orilgan 7

variantda va qo'shimcha 5 kg/ga SPERSAL kimyoviy melioranti qo'llanilgan 8 variantlarda kuzatildi. Bu variantlarda tuzlar umumiyligi miqdori 2,4-2,5 marta, xlor-ion - 2,3-2,6 marta, natriy va kaliy miqdori 0,83-1,81 kamayganligi kuzatildi.

Tuzlar gepotetik tarkibi hisobi, qaralayotgan davrdagi ular miqdorining o'zgarishi quyidagilarni ko'rsatdi. O'rganilayotgan tuproq qatlamida suvda eruvchi tuzlar quyidagicha kamayish tartibida joylashgan: CaSO<sub>4</sub>, NaCl, Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, MgSO<sub>4</sub> va Ca(HCO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>, tuproqda MgCl<sub>2</sub> kuzatilmadi. Vegetatsiya davrida deyarli barcha variantlarda suvda eruvchi tuzlarning kamayganligi qayd etildi. 1 va 2 variantlardagi Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> miqdorining 1,3 va 1,8 marta oshganligi bundan mustasno. Ca (HCO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> va Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> miqdorlarida juda kam o'zgarish kuzatildi. 5, 6, 7 va 8 variantlar tuproqlarida CaSO<sub>4</sub> miqdori tegishlicha 2,3; 3,6; 3,7 va 3,9 marta kamaydi; MgSO<sub>4</sub>-2, 3; 4,4 va 4 marta, NaCl - 2,2; 2,3; 2,3 va 2,6 marta kamaydi [6].

Jadvaldagagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki 25 % ga oshirilgan me'yordarda sug'orilgan 5 variantda va qo'shimcha 5 kg/ga SPERSAL kimyoviy melioranti sepilgan 6-variantda hamda 50 % ga oshirilgan me'yordaga bilan sug'orilgan 7-variantda va qo'shimcha 5 kg/ga miqdorida meliorant qo'llanilgan 5-variantlarda mavsumiy sug'orish me'yordari kamaygan. CHunki, tajriba uchastkasining tuprog'i og'ir qumoq. Bunday turdagagi tuproqlar suvni o'zida uzoq muddat tutib tura olishi hisobiga sug'orishlar oralig'idagi muddat 17-19 kundan 27-28 kungacha uzaygan. Natijada, nazorat varianti 2-4-1 sxema asosida 7 marta sug'orilgan bo'lsa, 25 % ga oshirilgan me'yorda sug'orilgan 5-variantda 1-3-1 sxema bo'yicha 5 marta, xuddi 6-variant tartibi bo'yicha sug'orilib, qo'shimcha 5 kg/ga SPERSAL kimyoviy melioranti qo'llanilgan 6-variantda ham 1-3-1 sxema bo'yicha 5 marta sug'orilgan. 50 % ga oshirilgan me'yorda sug'orilgan 7-variantda 1-2-1 sxema bo'yicha 4 marta, xuddi 6-variant tartibi bo'yicha sug'orilib qo'shimcha 5 kg/ga SPERSAL kimyoviy melioranti qo'llanilgan 8-variantda ham 1-2-1 sxema bo'yicha 4 marta sug'orilgan [8].

O'tkazilgan tajribalarning 6-variantida 6960 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanib, o'rtacha uch yillik paxta hosili 41,27 s/ga, 6-variantda ham 6960 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanib, hosildorlik 43,5 s/ga ni tashkil etgan. 7- va 8-variantlarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 41,2 va 45,0 s/ga bo'lgan.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida 1 s paxta hosili etishtirish uchun sug'orish suvi sarflari bo'yicha eng katta suv sarfi nazorat variantida 232,9 m<sup>3</sup>/s bo'lsa, 5- va 6-variantlarda 161,0 va 152,6 m<sup>3</sup>/s, 7- va 8-variantlarda bu ko'rsatkich 149,27 va 136,3 m<sup>3</sup>/s ga to'g'ri keldi [9].

YUqoridagi ma'lumotlarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, sug'orish me'yorini CHDNS ga nisbatan 25 % ga oshirib sug'orilganda tuproqdagi tuzlar miqdorining kamayishi hisobiga hosildorlik oshgan. Xuddi shu tartibda sug'orilib, qo'shimcha 5 kg/ga SPERSAL kimyoviy melioranti qo'llanilganda hosildorlik yana 2,23 s/ga miqdorga ko'paygani aniqlandi. Bu ko'satkich sug'orish me'yorini 50 % ga oshirib sug'orilgan 6-variantda sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. Xuddi shu tartib bo'yicha sug'orilib, qo'shimcha meliorant qo'llanilganda esa hosildorlik sezilarli darajada oshganligi kuzatildi.

## XULOSA

Og'ir mexanik tarkibli o'rtacha darajada sulfat-xlorli turda sho'rangan tuproqli erlarda sug'orish uchun beriladigan suvni defitsitdan 25 – 50 foizga oshirib (5; 6; 7 va 8-variantlar) sug'orishdan oldin qo'shimcha 5 kg/ga SPERSAL kimyoviy melioranti qo'llanilganda tuproqning meliorativ holati yaxshilanadi va hosildorlik har gektariga 3-5 s/ga miqdorga oshadi.

Qarshi tumaning suv taqchilligi sharoitida suvni tejash maqsadida o'tkazilgan (4-variant) tajriba natijalaridan ma'lum bo'ldiki, o'rtacha sho'rangan tuproqli yerlarda CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 25 % ga kamaytirilgan me'yorlarda sug'orish maqsadga muofiq emas. Chunki, CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % sug'orish tartibi tuproq qatlamida namlik zaxirasi yetarli bo'limganligi sababli, sug'orishlar oralig'idagi davr qisqarishi hisobiga sug'orishlar soni ortadi. Sug'orish texnikasi va irrigatsiya tarmoqlari foydali ish koeffisiyentlarining pastligi hisobiga har bir sug'orishda suv isrofgarligi oshib ketadi.

Ushbu ma'lumotlar Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumani "CHillabuloq" SIU ga qarashli "Mahmudov Alpomish" fermer xo'jaligining 5 (besh) ga maydonida va Mirishkor tumanining og'ir mexanik tarkibli, o'rtacha sho'rangan tuproqlari sharoitida 2019 yilda "Mirishkor chashmasi" nomli SIU ga qarashli "Umidullaev SHamshodbek" fermer xo'jaligining "Buxoro-6" g'o'za navi ekilgan 6 (olti) gektarli maydonlarida ishlab chiqarishga joriy qilingan va jobiy natijalar olinganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotnomasi olingan.

Demak, SPERSAL kimyoviy meliorantini 1-sug'orish oldidan tuproqqa 5 kg/ga miqdorida sepib, CHDNS 25 % va 50 % oshirilgan me'yorlarda sug'orish tashkil qilinganda sulfat-xlorli o'rtacha sho'rangan tuproqli erlearning meliorativ holati yaxshilanadi va noo'suv davrida sho'r yuvish uchun sarflanadigan 3500-4500 m<sup>3</sup>/ga suv tejaladi. SHuning uchun ham, mazkur usulni "Tuproq meliorativ holatini yaxshilashda suv tejamkor texnologiyalar" sirasiga kiritish mumkin.

## REFERENCES

1. [1.https://water.gov.uz/uz/page/5/40,](https://water.gov.uz/uz/page/5/40)
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Suv\\_resurslari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Suv_resurslari)
3. Doniyorov T.O. “Taqirsimon tuproqlar suv-tuz rejimiga kimyoviy meliorantning ta’siri va g‘o‘zani sug‘orish texnikasini takomillashtirish” mavzusidagi q.x.f.f.d. diss. avtoreferati. -T.: 2020. 46 b.
4. Азимбоев С.А. “Первичные испытания препарата SPERSAL для повышения производительной способности засоленных земел Узбекистана на 1995-1996 ггю” Отчет института водных проблем АН РУз. Т. 1996. -76 с.
5. Avlakulov M., Doniyorov T.O. G‘o‘zani egatlab sug‘orishda egat gidravlik elementlari orasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish. //Innovatsion texnologiyalar Ilmiy texnik jurnali 2021. Maxsus son. Qarshi 2021 y. 31-35 b.
6. Икрамов Р.К., Дониёров Т.О. Эффективность мелиоранта SPERSAL на засленных почвах Каршинской степи. Materialy X mejdunarodnoy konferensii “Veda a vznik” 2013/2014. Praha. 22-26 с.
7. Doniyorov T.O. Egatlاب sug‘orishning tuproq suv-tuz tartiboti o‘zgarishiga ta’siri. // Innovatsion texnologiyalar 3(35)-son. 2019 y. -56-59 b.
8. Авлакулов, М., & Дониёров, Т. О. (2020). РЕШЕНИЕ ЗАДАЧИ О ТЕЧЕНИИ ФИЛЬТРАЦИОННОГО ПОТОКА В ГЕТЕРОГЕННОЙ СРЕДЕ ПРИ БОРОЗДКОВОМ ПОЛИВЕ ХЛОПЧАТНИКА. *Актуальные проблемы современной науки*, (2), 100-104.
9. Дониёров Т.О., Авлакулов М., Tursunov G‘.J. Tuproq meliorativ holatini yaxshilashda suv tejamkor texnologiyalarning ahamiyati. “Innovatsion texnologiyalar” ilmiy texnik jurnali. Qarshi. 2022 yil. 1 (45) - son, 31-35 b.